XX ASRNING BIRINCHI YARIMIDA O‘ZBEKISTON DASTGOH RANGTASVIR SAN’ATI

Sh.B. Oydinov

Samarqand davlat pedagogika instituti o’qituvchisi.

sh.oydinov1972@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola, XX asrning birinchi yarimida O‘zbekiston dastgoh rangtasvir san’ati ravnaqi haqida yozilgan. Unda Yevropaning ilg‘or tasviriy san’ati an’analarini, rus va boshqa xalqlarning vakillari orqali O‘zbekiston san’atiga o‘ziga xos ta’siri va bu yangi bosqichning xarakteri haqida ma’lumotlar yoritilgan. Shuningdek turli uslub va yunalishlarning o‘ziga xos rivojlanishi, shu davr rassomlari va ularning ijod olamidagi rang-barang asarlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Tasviriy san’at, madaniyat, ma’naviyat, qadriyatlar, dastgohli rangtasvir, bo‘yoqlar, kompozisiya, natyurmort, manzara, janr, rus rassomlari, mahalliy rassomlar,

Аннотация. Данная научная статья посвящена расцвету станковой живописи Узбекистане в первой половине XX века. В ней освещается влияние передовых традиций изобразительного искусства Европы, а также своеобразное воздействие представителей русской и других народных школ на развитие искусства Узбекистана и характер этого нового этапа. Кроме того, рассматриваются особенности развития различных стилей и направлений, а также приводятся сведения о художниках того времени и их разнообразных произведениях.

Ключевые слова: Изобразительное искусство, культура, духовность, ценности, станковая живопись, краски, композиция, натюрморт, пейзаж, жанр, русские художники, местные художники.

Yurtimizda bo‘layotgan taraqqiyot jarayoni ilm-fan va madaniyatning barcha sohalarida bo‘lgani kabi tasviriy san’at sohasini ham chetlab o‘tgani yo‘q. Tasviriy

san’at eng qadimiy va keng tarqalgan san’at turlaridan biridir. Tasviriy san’at asarlari qaysi tur va janrda yaratilgan bo‘lishidan qat’iy nazar, ular kishilarning his tuyg‘usiga, ruhiyatiga ijobiy ta’sir etadi. Ma’naviy go‘zallik, ezgulik, estetik did hadiya etadi. Tasviriy san’at voqelik va borliqni shakllar, chiziqlar, rangli bo‘yoqlar orqali ma’lum bir tekslikda, yuzada va hokazolarda haykaltarosh yoki rassomlar tamonidan tasvirlanadigan san’atdir. Tasviriy san’at turlaridan biri bu rangtasvirdir. Rangli bo‘yoqlar yordamida tasvirlangan barcha tasvirlar ham rangtasvir bo‘lavermaydi. Rangtasvir san’ati darajasida tasvirlar yaratish ijodkordan yetarli darajada bilim, ko‘nikma, malaka va tajribalar talab etiladi. Turli bo‘yoqdan kerakli rangni topib joyida ishlatish oson ish emas. «Rangtasvir - asosan bo‘yoqlar vositasida matoga, devorga shuningdek, tekislik va yuzalarga ishlanadigan san’at turidir. Tasvir mazmuni, xarakteri va shunga o‘xshash barcha xususiyatlari bo‘yoqlar orqali ifodalab berilsa rangtasvir san’ati deb ataladi».1 Shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki XX asrning birinchi yarmida o‘lkamiz rassomlari dastgohli rangtasvirda ijod etib san’atimizni dunyoga mashhur etdilar. Dastgoh san’ati deyilganda esa erkin ijodiy faoliyat tufayli yaratilgan san’at asarlari tushuniladi. Oddiy qilib aytganda san’at asarini bir joydan boshqa joyga ko‘chirib o‘tkazish imkoniyati bor bo’lsa, dastgoh san’ati deyish mumkin. Deylik dastgoh san’at asarlarini o‘quv xonasiga, turli tasviriy san’at ko‘rgazmalariga, dam olish xonalariga va shu kabi boshqa xonalarga va joylarga qo‘yish mumkindir.

XIX asr oxirgi choragining 80-yillariga kelib O‘rta Osiyo yerlari butunlay rus qo‘shinlari tomonidan bosib olgan yerlarida tasviriy san’at o‘zining yangicha shakllanish davriga kirib keldi. Rossiya fevral-burjua inqilobi va undan keyin, oktabr to‘ntarishi mamlakatning madaniy hayotini butunlay o‘zgartirib yubordi. 1922-yildan keyin sovet hukumati tarkibida bo‘lgan O‘zbekistonda ham sovet turmush tarzi rivoj topib bordi. Xalqlarning fojiali damlari boshlandi. Bu fojia, ayniqsa, O‘rta Osiyo mintaqasidagi xalqlar boshiga misli ko‘rilmagan kulfatlarni keltirdi. O‘zbek xalqi

1 Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. Тошкент “Ўқитувчи”, нашриёти, 1997. , 9-бет

ham bu borada o‘tmishidan, dinidan, qadriyatlaridan, milliy urf odatlaridan, buyuklar merosidan, ziyoliylaridan mahrum bo‘ldi. Bu davrda rus xalq vakillari va ularning turli kasb egalari O‘rta Osiyo yerlariga ko‘chib kela boshladi.

XIX asrning oxirlarida va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekistonda ham san’at o‘zining yangicha shakllanish davriga asta-sekin kirib kela boshladi. Asosan bu davr san’atiga Yevropaning ilg‘or tasviriy san’ati an’analari rus va boshqa xalqlarning vakillari orqali o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Bu yangi bosqichning xarakteri haqida alohida to‘xtalish lozim. Miniatyuraga xos ishlanish uslublari va qonuniyatlaridan farqli o‘laroq, Yevropa davlatlarida ancha ilg‘orlab ketgan uch o‘lchamlilik qonuniyatlari asosida rivojlangan bu tasviriy san’at aynan o‘sha davrlarda bizning o‘lkamizda deyarli mavjud emas edi. Ajdodlarimizning san’atga ixlosmand ilg‘or vakillari esa ko‘proq xalq amaliy bezak san’ati bilan mashg‘ul bo‘lganlar. O‘lkamiz tarixining ana shu pallasida rus va boshqa xalq vakillarining ta’siri rangtasvir san’atni o‘ziga xos ravnaq topishi uchun alohida ahamiyat kasb etdi. Asta-sekin mahalliy an’analar bilan uyg‘un rivojlangan tasviriy san’atimiz rivojiga M. Novikov, L. Bure, S. P. Yudin, I. S. Kazakov, N. V. Ryazanov, N. I. Grechaninov, T. N. Nikitin singari rassomlar katta hissa qo‘shishdi.

XX asrning birinchi yarmida ta’qib va to‘siqlarga qaramay, O‘zbekiston ijtimoiy va madaniy hayotida sezilarli siljishlar sodir bo‘ldi. 50-60 yillardan boshlab, o‘zbek tasviriy san’ati yangi pog‘onaga qadam qo‘yadi. Bu davrda milliy san’at xususiyatlarining yanada mustahkamlanishi, san’atda milliy o‘ziga xoslikni izlash bilan birga shaxsiy his-tuyg‘ularni ifodalashga o‘tib borilishi bilan xarakterlanadi. XIX asrning oxirgi choragi san’atda o‘ziga jiddiy o‘zgarishlar vujudga keladi. Ijod erkinligi san’atdagi izlanishlar turli uslub va yo‘nalishlarning rivojlanishiga olib keldi. Ayniqsa O‘zbekistonning mustaqillikga erishgan dastlabki yillaridan tasviriy san’atining mavzusi kengaydi. Eng avvalo milliy tarix bilan bog‘liq voqealar ko‘pchilik rassomlarni o‘ziga jalb etdi.

1910-1920 yillarda O‘zbekiston tasviriy san’atining rivojlanishi o‘ziga xos bosqichga to‘g‘ri keladi. Bu davrda ijod etgan rus rassomlaridan L.Bure, A.Volkov,

A.Tatevosyanlarning ijodiy izlanishlari tasviriy san'atda munosib o'rinni egallaydi? Rangtasvirida P. Benkov, A. Volkov, O. Tatevosyan, A. Nikolayev, O'. Tansiqboyev, N. Karaxanlar faol ijod qilishdi. Ular yaratgan rangtasvir asarlarini tamosha qilar ekansiz milliy o'ziga xoslikning turli ko'rinishlari va holatlari ko'zga tashlanadi.

Bu davrda tasviriy san'at tur va janrlari yanada rivoj topdi. "Ko'p hollarda rassomlar naturadan olgan taassurotlarini hikoya qilishga berilib, kartinada shu to'plagan taassurotlari yig'indisini berishga e 'tibor qaratilmagan. Bu o'sha davr rangtasvirining xarakterli xususiyatidir. An'anaviy xalq turmushi ko'pincha me'morlik, jonli, shovqin-suronli bozorlar, choyxonada osoyishta choy ichish fonida tasvirlanadi. Rassomlarni kishilar egnidagi sharq kiyim-kechagiga xos serhashamlik va ranglarga boylik ko'proq o'ziga tortadi. Bu xususiyatlar A. Isupov, L. Bure, R.Vommer, I. Kazakov asarlarida ko'rindi"[2].

1918-20 yillarda O'zbekistonda san'atni targ'ib etish, ko'rgazmalar uyushtirish, muzeylarni milliylashtirish kabi ishlar amalga oshirildi. Toshkent, Samarqand shaharlarida badiiy maktablar ochildi. Ularga ko'plab mahalliy yoshlar jalb etildi. Bunda rus va boshqa milliy rassomlar faol ishtirok etdi. Shu bilan birga o'zbek xalq san'atini o'rganish orqali rassomlar haqiqiy milliy san'at namunasini yaratishga, o'z asarlarida davrning muhim voqealarini aks ettirishga harakat qildilar. Shunday rassomlardan biri O. K. Tatevosyan bo'ldi. U rassom 1915 yil birinchi bor O'zbekistonga keldi. O'zbekistonning serjilo tabiati, boy me'morchilik yodgorliklari yosh rassomni o'ziga mahliyo etdi. O'zbekistonda o'z ijodiy izlanishlari uchun katta imkoniyatlar borligini xis qilgan rassom, butunlay O'zbekistonga ko'chib keldi va o'zining sermahsul ijodini boshladi, yosh rassomlarga murabbiylik qildi. Uning ilk ijodidagi asarlar asosan Samarqandga bag'ishlangan.

1922- yillarda fan va san'at borasida ham ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Ziyolilar safi kengaydi, ularning qatoriga birinchi bor badiiy ziyolilarning katta

---

2 A. Egamberdiyev, S. Saidova, R. Rajabov. Tasviriy va me'morchilik san'ati tarixi. Toshkent "O'qituvchi" "nashriyot-matbaa ijodiy, 2007., 125 bet

guruhi kelib qo‘shildi. Ular san’at orqali ijtimoiy masalalarni ko‘tarib chiqishga, sodir bo‘layotgan voqea va hodisalarni realistik san’at tilida tasvirlashga kirishdilar. San’atning tur va janrlari kengaydi, yangilari paydo bo‘ldi.

XIX asrning 20-30 yillariga kelib O‘zbekiston tasviriy san’ati o‘ziga xos shakl-shamoyiliga ega bo‘la boshladi. Tasviriy san’at maydonida A.Volkov, P.V. Kuznetsov, M. N. Kurzin, S.J. Finkelshteyn, N.G. Karaxan, V.I. Ufimsev, Usta Mo‘min (A. N. Nikolaev), N. Kashina, O.K. Tatovosyan, P.P. Benkov, S.M. Kovalevskaya, I. Ikromov, O‘. Tansiqboyev, Ch. Ahmarov, L. Abdullayev kabi vakillarining badiiy tafakkuri milliy ruh bilan boyib yangidan-yangi estetik dunyoni kashf eta boshladi. Shu davrda xalq hayotining rang-barang tamonlari o‘ziga xos yorqin ifodasini tasviriy san’atda ham topadi. “O‘zbek xalqining milliy an’analarini jamlab o‘zbekona tasvirlay olgan rangtasvir ustasi Usta Mo‘min (asli ismi Aleksandr Vasilevich Nikolayev) ana shunday san’at ustalaridan biri edi. U 1897 yil 30-avgustda Voronejda harbiy injener oilasida tavallud topgan. Taqdir taqozosi bilan yigirmanchi yillarda Samarqandga kelib yashaydi va mehnat faoliyatini davom ettiradi. U sobiq sovet davrida O‘zbekiston tasviriy san’atini har tomonlama targ‘ib va tashviq qilishda samarali mehnat qilgan musavvirdir. … Xalqimiz xarakteriga xos xususiyatlar ayniqsa “Bahor” (1923 yil) “Kuyov” (1923 yil), “Dutorchi bola” (1924 yil), “Choyxonachi (1928 yil) kabi asarlarida yaqqol aks etgan”[3]. Umuman, Usta Mo‘minning ijodida o‘zbek san’atkorlariga xos an’analar o‘z aksini to‘la-to‘kis topdi.

Ana shu yillarda erishilgan ijodiy muvaffaqiyatlar o‘z ta’sirini keyingi avlodlarga ulashar ekan, natijada tasviriy san’atda mahalliy vakillarning safi kengaya bordi. O‘, Tansiqboyev, Ch. Ahmarov, A. Abdullayev, M. Nabiyev, L. Abdullayev, Sh. Hasanova, R. Temurov, X. Rahmonov, B. Hamdamiy, L. Nasriddinov va boshqa bir qator ijodkorlar yetishib chiqa boshladilar. Mana shu davrda bir qator rassomlarning yetuklik pillapoyasiga chiqishlarida ustozlik qilgan Nikolay Stepanovich Turkestanskiyning faoliyati ham diqqatga sazovordir. Bu ajoyib ustoz

3 Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. Тошкент “Ўқитувчи”, нашриёти, 1997. , 54-55 бет

rassom o‘z davrida tasviriy san’at sirlarini yoshlarga o‘rgatib, ko‘rgazmalar tashkil qildi.

“XX asr birinchi yarmi tasviriy san’ati tarixida O‘zbekiston xalq rassomi Aleksandr Nikolaevich Volkovning ijodi bebaho qimmatga ega. A. Volkov 1886 yilda Farg‘onada tavallud topgan. U yaratgan asarlar badiiy qimmati, xarakteri jihatidan ham xalqimizga xos an’analarni namoyish qiladi. Umuman, Volkov tasviriy san’atda o‘zbekona maktab yarata oldi.”[4]. A. Volkov Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekiston san’ati me’rosini o‘z davrida ma’lum va mashhur bo‘lishida katta hissa qo‘shgan

Manzara janrining mahoratli ustasi akademik rassom O‘rol Tansiqboev butun hayoti va ijodiy faoliyatini O‘zbekiston tabiatini tasvirlashga bag‘ishlagan. U serquyosh o‘lkamiz tabiatini o‘tkir mo‘yqalamiga tayanib san’atkorona tasvirlashi bilan tasviriy san’at rivojiga benazir hissa qo‘shgan buyuk rassomdir. Rassom 1904-yil 4-mayda Toshkent shahridagi qozoq millatiga mansub oilada dunyoga keladi. Ilk bor maktabda rasm saboqlarini Yaroslav Fyodorovichdan o‘rgangan. Keyinchalik esa tasviriy san’at sirlarini o‘zlashtirishda mashhur rus rassomi Repinning shogirdi Rozanovning ta’siri katta bo‘lgan. 1934-yilning avgust oyida Moskvada o‘tkazilgan o‘zbek rassomlari ko‘rgazmasida uning ijodiy asarlari o‘ziga xos ajralib turadi. Bu yerda rassomning “Ona ovulda”, “Ko‘chmanchilar manzili”, “Meva terish”, “Ozod ayol” kabi asarlari ko‘pchilikni o‘ziga jalb qildi. Keyingi izlanishlari “Sirdaryo” (1935), “Burchimulla” (1936), “Bog‘iston” (1937), “Tog‘ manzarasi” (1937), “Bahorgi ishlar” (1938), “Orol dengizi” (1939) va boshqa bir qancha tabiat manzarasini aks ettirgan eskiz va ranglovhalari uning mahorat cho‘qqisini egallaganligidan dalolat beradi.

Manzara janrining ana shunday yana bir ilg‘or vakili Nikolay Georgievich Karaxan hisoblanadi. Rassom o‘lkamiz tabiatida doimo sayr qilar va har bir faslning o‘ziga xos go‘zalliklarini serjilo ranglar bilan tasvirlab berishga intilar edi. 30-yillarda

4 Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. Тошкент “Ўқитувчи”, нашриёти, 1997. , 55-56 бет

ishlagan “Qizlar hovuz bo‘yida”, “Uch mashshoq”, “Hovlida uzum uzish”, “To‘g‘on qurilishi”, “Bahor”, 1940-yillarda yaratgan “Xirmonchi qiz”, “Ona diyor”, “Nanay yo‘li” kabi manzaralari uning o‘ziga xos tasviriy san’at ustasi ekanini isbotlaydi. Ayniqsa, 1957-yilda ishlangan “Oltin kuz” asari tabiatimizga xos go‘zallikni o‘ta mahorat bilan ko‘rsata olganligining namunasidir.

“30-yillarda P. Benkov bilan birgalikda N. Kashina, Z. Kovalevskayalar muvaffaqiyatli izlanishlar olib bordilar. Mahalliy rassomlardan A. Abdullayev, B. Hamdamiy, A. Toshkenboyev, Z. Saidnosirova, L. Abdullayev, R. Temurovlar o‘z izlanishlarini boshladilar. 40-yillarda tashviqot plakatlari va hajviy chizgilar “O‘zTAG oynasi”da bosilib chiqdi.

50-yillarda zamonaviy me’morchilikka xos asarlar, manzara, portret, batal janridagi izlanishlar ko‘zga ko‘rina boshladi. Bu davr sankt-Peterburg Badiiy akademiyasini bitirib kelgan mahalliy rassomlar R. Ahmedov, M. Saidov, N. Qo‘ziboyev, shuningdek Z. Inog‘omovlarning ijodiy faoliyati bilan bog‘liq”[5]. Bu davrda yaratilgan rassom M. Sayidovning “Tong” nomli rangtasviri diqqatga sazovardir. Kartinada davr ruhiyati yaqqol aks etgan.

1941-1945 yillardagi bo‘lib o‘tgan ikkinchi jahon urushi O‘zbekiston san’ati taqdiriga ham ta’sir etmay qolmadi. Bu murakkab va tarixiy davrda O‘zbekiston rassomlari o‘z ijodlarida urushga harbiy mavzularga jiddiy e’tibor qaratdilar Ikkinchi jahon urushida ishtirok etgan mahalliy rassomlardan Hikmat Rahmonov, Samig‘ Abdullayevlar bir qo‘lida mo‘yqalam, bir qo‘lida qurol ushlab faoliyat yuritishgan. Iste’dodli san’at ustalaridan B. Hamdamiy va L. Nasriddinovlar, afsuski, frontdan qaytishmadi.

“1947 yilda Toshkentda 1917 yil inqilobining 30 yilligiga bag‘ishlangan ko‘rgazma bo‘lib o‘tdi va 200 dan ortiq, rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika asarlari namoyish etildi, ularning aksariyati o‘tgan urush mavzusini aks ettirgan. Ko‘rgazma

5 A. Egamberdiyev, S. Saidova, R. Rajabov. Tasviriy va me’morchilik san’ati tarixi. Toshkent “O‘qituvchi” “nashriyot-matbaa ijodiy, 2007.， 125-bet.

Turkistonda bolsheviklar hokimiyatining o‘rnatilishiga bag‘ishlangan bo‘lib, ... asarlar urush yillari va bu qonli urushdagi g‘alaba mavzusiga bag‘ishlangan edi. Urushdan keyingi davrda yaratilgan asarlarning asosiy g‘oyalari-SSSRning urushdagi zafarlari, barcha yutuqlar omili bo‘lgan xalq va partiyaning birligi va urush qahramonlarni qadrlash bo‘lgan. Bir qator asarlarda urushdan keyingi xayot syujetlari, urush maydonlaridan qaytgan jangchilar bilan uchrashish va yangi xayotni tiklash quvonchi yetkazildi”[6]. Shu narsa yana e’tiborga molikki, aynan ikkinchi jahon urushi yillarida o‘nlab mashhur san’at ustalari Rossiya, Ukraina va boshqa joylardan O‘zbekistonga kelishdi. Natijada ularning ijodiy yutuqlari, uslublari mahalliy san’at vakillariga ta’sirini o‘tkazdi. 50-yillarga kelib bir qator o‘zbek rassomlari ijodida ham yangi-yangi asarlar yuzaga kela boshladi.

O‘zbek xalqining fojiali damlarida, siyosiy ta’qiblarga qaramay tasviriy san’at o‘ziga xos tarzda rivojlandi. XX asr boshlaridan O‘zbekiston san’ati o‘zining yangicha shakllanish davriga asta-sekin kirib kela boshladi. Bu davrda qator istedodli ijodkorlar yetishib chiqdilar. Ular san’at olamida o‘ziga xos jihatdan ta’sirli iz qoldirdilar. Tarix zarvaraqlariga nazar tashlar ekanmiz XX asar birinchi yarmida O‘zbekiston mo‘yqalam sohiblari dastgohli rangtasvir san’atiga misli ko‘rilmagan darajada hissa qo‘shganliklarini guvohi bo‘lamiz.

Adabiyotlar

1. Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. Тошкент “Ўқитувчи”, нашриёти, 1997.
2. A. Egamberdiyev, S. Saidova, R. Rajabov. Tasviriy va me’morchilik san’ati tarixi. Toshkent “O‘qituvchi” “nashriyot-matbaa ijodiy, 2007.
3. Акбар Ҳакимов. Ўзбекистон санъати тарихи. Тошкент “Зилол булоқ” нашриёти, 2022.
4. N. Abdullayev. O‘zbekiston san’ati tarixi. “O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti”, 2007.

6 Акбар Ҳакимов. Ўзбекистон санъати тарихи. Тошкент “Зилол булоқ” нашриёти, 2022. 406-bet

5. Oydinov N. Rassom-o‘qituvchilarni tayyorlash muammolari. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1997 y.
6. S. Abdirasilov, N. Tolipov. Rangtasvir. Toshkent, “Bilim” nashiryoti, 2005.
7. Hasanov R. Tasviriy san’at asoslari. Toshkent, G‘. G‘ulom nomidagi nashiryot matbaa –ijodiy uyi, 2009 .
8. Sh. Oydinov. Tasviriy san’at tarixi, Samarqand “SamDU tahririy nashriyot bo‘limi bosmaxonasi”, 2023.